



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Niyozova Shahlo No‘monjonovna
Namangan viloyati Davlatobod tumani
48-maktab Boshlang‘ich sinf

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish va uning o‘quvchilar tafakkurini oshirishda afzalliklari xususida.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yinlar, kreativlik, pedagogic mahorat, boshlang‘ich ta’lim, texnologiya, kompetentsiya.

Annotation: this article deals with the use of didactic games in elementary school lessons and its advantages in increasing students ' thinking.

Keywords: didactic games, creativity, pedagogical skill, primary education, technology, competence.

Аннотация: в данной статье рассматривается использование дидактических игр на уроках начальной школы и их преимущества в развитии мышления учащихся.

Ключевые слова: дидактические игры, креативность, педагогическое мастерство, начальное образование, технология, компетентность.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan.

Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot



madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rghanish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. O'qitishning o'zin Shakli kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun darslarni o'zlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

O'yining o'qitisho'rgatish jarayonidagi imkoniyatlari olimlar tomonidan – didaktik o'yinlarni maxsus o'rganilishiga olib keldi. Didaktik o'zin – o'yining shunday turi bo'lib, u yangi bilimlarni o'zlashtirish, umumlashtirish, mustahkamlash, bilish jarayonini faollashtirish, kichik bolalarni o'quv faoliyatiga ko'niktirishga ko'maklashadi. Didaktik o'zin murakkab, ko'p qirrali hodisadir. Didaktik o'yinlarda nafaqat bilimlar o'zlashtiriladi, ko'nikmalar hosil qilinadi, balki bolalarning barcha ruhiy jarayonlari ham rivoj topadi. Didaktik o'yinlar - qoidalar asosidagi o'yinlarning bir turi bo'lib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida pedagoglar tomonidan maxsus yaratilgandir. Didaktik o'yinlarda aqliy faoliyatning umumlashgan usullari mujassamlashadi, barcha bilish jarayonlari intellektga yo'naltiriladi, hamda ichki harakat rejaları shakllana boshlaydi.

Didaktik o'yinlarning asosiy belgilariidan biri aniq maqsadning va unga mos pedagogik samaraning mavjudligidir. "Didaktik o'zin – o'qish-o'rgatish uchun mo'ljallangan maxsus o'zin; ma'lum qoidalar(shartlar) bilan cheklangan, ma'lum ko'zlovchi (yutuq, sovg'a) o'yinchilar orasidagi musobaqadir". Didaktik o'zin o'rgatish shakli sifatida o'quv (bilish) va o'zin (qiziqtirish) dan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Toxirov J, Muxammedova G. "Matematika" darslarida innovatsiya; T: TDPU 2002
2. U.A.Roziqov, N/H.Mamatova Matematika va turmush nomli qo'llanma, T:
3. "Fan" nashriyoti, 2020 y, 127 b.
4. A.A.Akmalov Matematikadan qiziqarli mashg'ulotlar, T: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2017 y.